



Bandlik va mehnat bozori

(dastlabki ma'lumot)

2017 yil yanvar-sentabr

E'tibor bering:

- Viloyatimizda ish bilan band aholi soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,1 foizga** oshdi.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi **59,8 foizgacha** o'sgan.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yil yanvar-sentabr davri uchun viloyatimizda ish bilan band bo'lganlar soni 423,9 ming kishini tashkil etdi.

Ish bilan band bo'lganlar soni quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sezilarli darajada o'sgan, ya'ni tashish va saqlashda (1,4 foizga), qurilishda (3,1 foizga), savdoda (2,1 foizga) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (1,4 foizga).

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish bilan bandlarning asosiy ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (22,0 foiz), sanoatda (27,1 foiz), savdoda (8,4 foiz), qurilishda (12,2 foiz), ta'limda (8,9 foiz) kuzatilmoqda.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi 59,8 foizgacha o'sgan.

Ish bilan band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2017 yil yanvar-sentabr, jamiga nisbatan foizda)
(2017 yil yanvar-sentyabr oylarida, jamiga nisbatan% da)



Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha ish bilan bandlarning taqsimlanishi (Dastlabki ma'lumot, 2017 yil yanvar-sentabr)



Jami ish bilan bandlar tarkibida davlat sektorida bandlar ulushi 35,6 foizni (2016 yilda 35,6 foizni tashkil etgan), nodavlat sektorda 64,4 foizni (64,4 foiz) tashkil etdi.

Ishsizlik. Ish bilan bandlar sonining iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi 94,6 foizni, mos ravishda ishsizlik darajasi 5,4 foizni tashkil etdi.

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

B.Barakayev
(436) 2230741